XALQ DEPUTATLARI TOYLOQ TUMANI KENGASHINING QARORI

2023 - yil 20 - noyabr VI-82-138-7-104-K/23 Toyloq tuman hokimligi

Toyloq tumani hududidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida”gi Qonuni va Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi **299-sonli** qarorining **1-ilovasi** bilan tasdiqlangan “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi to‘g‘risida”gi Nizom ijrosi yuzasidan hamda tuman hokimining 2023-yil 26-oktabrdagi 142-7-104-F/23-sonli farmoyishiga asosan, Respublika aerogeodeziya markazi tomonidan Samarqand viloyati Toyloq tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlarining yakuniga ko‘ra tumandagi shaharcha va qishloqlarlarining umumiy perimetri **343 046 metr** umumiy maydoni **26 415,41 gektar** *(Toyloq tumanidan Samarqand shahriga o‘tkaziloyatgan qishloqlarning umumiy peremetri 35 649 metr umumiy maydoni 1268,43 ga)* ekanligi aniqlandi.

Jumladan:

Toyloq shaharchasi umumiy peremetri 15743 metr, umumiy maydoni 513,43 gektar;

Bog‘izog‘on shaharchasi umumiy peremetri 5846 metr, umumiy maydoni 118,24 gektar;

Adas shaharchasi umumiy peremetri 6388 metr, umumiy maydoni 117,92 gektar;

Tepaqishloq qishlog‘i umumiy peremetri 23504 metr, umumiy maydoni 1758,38 gektar;

Adas qishlog‘i umumiy peremetri 46356 metr, umumiy maydoni 2649,35

gektar;

Madaniyat qishlog‘i umumiy peremetri 6318 metr, umumiy maydoni 97,78 gektar;

G‘o‘lba qishlog‘i umumiy peremetri 43916 metr, umumiy maydoni 4650,33 gektar;

Qo‘rg‘oncha qishlog‘i umumiy peremetri 63004 metr, umumiy maydoni 6175,08 gektar;

Sochakibolo qishlog‘i umumiy peremetri 39627 metr, umumiy maydoni 3894,98 gektar;

Jumabozor qishlog‘i umumiy peremetri 27900 metr, umumiy maydoni 1422,31 gektar;

Bog‘izog‘on qishlog‘i umumiy peremetri 38756 metr, umumiy maydoni 3463,08 gektar;

Toyloq qishlog‘i umumiy peremetri 25688 metr, umumiy maydoni 1554,53 gektar;

Samarqand shahriga o‘tkazilayotgan yer uchastkalari

Qo‘rg‘oncha qishlog‘i umumiy peremetri 18151 metr, umumiy maydoni 463,6 gektar;

Madaniyat qishlog‘i umumiy peremetri 12302 metr, umumiy maydoni 741,44 gektar;

Sochakibolo qishlog‘i umumiy peremetri 5196 metr, umumiy maydoni 63,39 gektar;

Toyloq tumani ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilashda shaharcha va qishloqlar chegaralari ajratib ko‘rsatilgan holda tavsiflandi. Chegaralar chizig‘ining yozuvli matni tavsifida joyning tegishli topografik elementlari bilan bog‘lanib, chegara nuqtalari o‘rtasidagi masofasi va chegara chizig‘ining qutb yo‘nalishlari aks ettirildi. Chegara chizig‘ining burilish nuqtalari koordinatalari ko‘rsatildi.

Kun tartibidagi masala yuzasidan Davlat kadastrlar palatasining Toyloq tumani filiali rahbarining axborotini tinglab, taqdim etilgan ma’lumotlar fikr va mulohazalarini hamda taklif va tavsiyalarini atroflicha o‘rganib chiqib,

“O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida”gi Qonunning 10-moddasi hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6 va 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Davlat kadastrlar palatasining Toyloq tumani filiali rahbari B.Mustofokulovning Toyloq tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash to‘g‘risidagi axboroti hamda Respublika aerogeodeziya markazi tomonidan Toyloq tumanidagi shaharcha va qishloqlarning chegaralarini belgilash bo‘yicha bajarilgan ishlarning yakuniy natijalarini ko‘rib chiqish yuzasidan tuman hokimligida tuzilgan ishchi guruh tarkibining 2023-yil 27-oktabrdagi 01-03/182 sonli yig‘ilish bayoni ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Toyloq tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlari yakuniy natijalari to‘g‘risidagi ma’lumot 1-ilovaga hamda ma’muriy-hududiy birliklarning chegaralarini belgilash bo‘yicha kartografik chizmasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Xalq deputatlari Toyloq tumani Kengashining 2021-yil 24-noyabrdagi VI-43-90-7-104-K/21-sonli hamda Xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining 2021-yil 6-dekabrdagi VI-48-101-7-0-K/21-sonli qarorlariga asosan Toyloq tumanidan Samarqand shahriga o‘tkazilayotgan yer uchastkasi O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi Senatining qaroriga asosan tuman ma’muriy-hududiy chegarasiga o‘zgartirish kiritilishi inobatga olinsin.

4. Tuman hokimligi axborot xizmati (N.Raxmatova) mazkur qarorni tuman hokimligining rasmiy veb-saytida yoritilishini ta’minlasin.

5. Ushbu qarorning tasdig‘i xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashidan so‘ralsin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari va tuman hokimining o‘rinbosarlari (J.Xujamurodov, S.Eraliev, Sh.Haydarov, B.Sanaqulov) zimmalariga yuklatilsin.

7. Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Kengashi Raisi **B.Babonazarov**

Xalq deputatlari Toyloq tuman
Kengashining
2023-yil 20-noyabrdagi
VI-82-138-7-104-K/23-son qaroriga
1-ilova


Toyloq tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlarining yakuniy natijalari to‘g‘risida

T/r	Ma’muriy-hududiy birliklarning nomi	Umumiy perimetr (metr)	Umumiy maydoni (gektar)
1	Toyloq shaharchasi	15743	513,43
2	Bog‘izog‘on shaharchasi	5846	118,24
3	Adas shaharchasi	6388	117,92
4	Tepaqishloq qishlog‘i	23504	1758,38
5	Adas qishlog‘i	46356	2649,35
6	Madaniyat qishlog‘i	6318	97,78
7	G‘o‘lba qishlog‘i	43916	4650,33
8	Qo‘rg‘oncha qishlog‘i	63004	6175,08
9	Sochakibolo qishlog‘i	39627	3894,98
10	Jumabozor qishlog‘i	27900	1422,31
11	Bog‘izog‘on qishlog‘i	38756	3463,08
12	Toyloq qishlog‘i	25688	1554,53
	Jami	**343046**	**26415,41**
Samarqand shahriga o‘tkazilayotgan yer uchastkalari			
	Qo'rg'oncha qishlog'i	*18151*	*463,6*
	Madaniyat qishlog'i	*12302*	*741,44*
	Sochakibolo qishlog'i	*5196*	*63,39*
	Jami	***35649***	***1268,43***

Xalq deputatlari Toyloq tuman
Kengashining
2023-yil 20-noyabrdagi
VI-82-138-7-104-K/23-son qaroriga
2-ilova

Toyloq tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash chegaralarining kartografik chizmasi

Samarqand viloyati Toyloq tumanidagi shaharcha va qishloqlar chegaralarini belgilash ishlari bo‘yicha
SXEMASI



Chegaradosh yerlar izohnomasi

A dan B gacha Jomboy tumani

B dan D gacha Bulung‘ur tumani

D dan E gacha Urgut tumani

E dan F gacha Samarqand tumani

F dan G gacha Samarqand shahri

G dan A gacha Samarqand tumani

2-uchastka

A dan B gacha Samarqand tumani

B dan D gacha Urgut tumani

D dan E gacha Qashqadaryo viloyati

E dan A gacha Nurobod tumani

3-uchastka

A dan B gacha Samarqand tumani

B dan A gacha Nurobod tumani

Shartli belgilar

Viloyatlar chegarasi

Tumanlar chegarasi

Shaharchalar chegarasi

Qishloqlar chegarasi

Toyloq tumanidan Samarqand shahriga o‘tkaziloyatgan yer maydoni